

# Tilda ifoda va san'atda tasvir: inson tafakkurining ikki qirrasi

Linora Alijon qizi Shermuhammedova  
Nazoratchi: Muqaddas Ikromovna Murodova  
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali

**Annotatsiya:** Tilda ifoda va san'atda tasvir - bu inson tafakkurining ikki qanoti kabidir: biri so‘z orqali ma’no izhor etsa, ikkinchisi ranglar va shakllar orqali tuyg‘uni jonlantiradi. Til aqlni gapisra, san’at yurakni so‘zlatadi; biri fikrni tartibga soladi, ikkinchisi uni erkinlikka chorlaydi. Ular birgalikda inson ongingin chiqurligini, borliqni anglash istagini va ichki olamini to‘la ochib beradi. Bu - inson tafakkurining ikki qarama-qarshi, ammo uyg‘un qirrasidir. Til orqali inson o‘z fikrini aniqlik va mantiq doirasida ifoda etsa, san’at orqali u ichki kechinmalarini, ong ostidagi noaniq, ammo teran tuyg‘ularini namoyon etadi. Birinchisi - tafakkurning mantiqiy asosini, ikkinchisi esa emotsiyal va intuitiv yo‘nalishini o‘zida aks ettiradi. Bu ikki ifoda shakli birgalikda inson ruhiyatining murakkab va ko‘p qatlamlari tabiatini ochib berishga xizmat qiladi. Inson tafakkur qilar ekan, uni doim ziddiyatlarga soluvchi ikki qarash mavjud bo‘ladi. Inson bir narsani o‘ylar ekan, shu zahotiyiq uning qarashlariga qarshi fikr tug‘iladi. Hammaga ma’lumki, tafakkur - inson aqliy faoliyatining eng yuksak shakli. Demak, biz tasavvur qilgan narsaning o‘ziyoq tafakkurimizda shakllanib bo‘lgan bo‘ladi. Biz o‘ylagan fikrlar esa tasavvurimizda. Inson qachonki fikr chegarasini kesib o‘tar ekan, uning bu ishga bo‘lgan ishonchi ortadi, muvaffaqiyati kengayadi. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: bu jarayon mobaynida insonga to‘sinqlik qiluvchi obyektiv yoki subyektiv muammolar uchrasa-chi? Bunda insonga uning ongi, ya’ni aqli yordamga keladi. Ong odamlar hayotida ular tanlaydigan va qo‘llab-quvvatlaydigan fikrlari tufayli ham hukmronlik qiladi. Ongni xuddi xarakterning ichki “kiyimi” va sharoitlarning tashqi “kiyimi”ni tikuvchi chevarga o‘xshatish mumkin. Agar hozirgacha siz og‘riq va umidsizlikni his qilgan bo‘lsangiz, endilikda to‘g‘ri fikrlash orqali siz baxt va ruhiy poklanishga erishishingiz mumkin. Insonlar doim muloqotda bo‘ladi, gaplashadi va suhbat quradi. Ular boshqalarga ichki hislarini tilda ifoda qilishadi. Fikrini ifodalab berishda ko‘maklashuvchi eng muhim vosita bu - til. Ba’zida esa til insonning o‘ziga qarshi vosita sifatida ham ishlashi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** emotsiyal va intuitiv yo‘nalish, fikr chegarasi, minnatdorlik, moliyaviy savodxonlik, kamolotga intilish, salbiy fikrlash, qo‘rquv, vaqt taqsimoti

## Expression in language and image in art: two sides of human thought

Linora Alijon kizi Shermuhammedova  
Supervisor: Muqaddas Ikromovna Murodova  
Samarkand State University Kattakurgan Branch

**Abstract:** Expression in language and image in art are like two wings of human thought: one expresses meaning through words, the other revives feelings through colors and forms. If language speaks to the mind, art speaks to the heart; one organizes thought, the other calls for freedom. Together they fully reveal the depth of the human mind, the desire to comprehend existence, and the inner world. These are two opposite but harmonious sides of human thought. If through language a person expresses his thoughts within the framework of clarity and logic, then through art he reveals his inner experiences, his subconscious, vague but deep feelings. The first reflects the logical basis of thinking, and the second reflects the emotional and intuitive direction. Together, these two forms of expression serve to reveal the complex and multi-layered nature of the human psyche. When a person thinks, there are two views that constantly conflict with him. When a person thinks about something, an opposing thought immediately arises. As everyone knows, thinking is the highest form of human mental activity. So, what we imagine is already formed in our thinking. And the thoughts we think are in our imagination. When a person crosses the boundaries of thought, his confidence in this work increases, his success expands. At this point, a question arises: what if during this process a person encounters objective or subjective problems that hinder him? In this, his consciousness, that is, his mind, comes to his aid. The mind also dominates people's lives because of the thoughts they choose and support. The mind can be likened to a tailor who sews the inner "clothes" of character and the outer "clothes" of circumstances. If until now you have felt pain and despair, now through correct thinking you can achieve happiness and spiritual purification. People are always in communication, talking and having conversations. They express their inner feelings to others through language. The most important tool that helps to express their thoughts is language. Sometimes language can also work as a tool against a person.

**Keywords:** emotional and intuitive orientation, thought boundaries, gratitude, financial literacy, striving for perfection, negative thinking, fear, time allocation

### Kirish

"Inson o'zini o'zi ham bunyod etadi, ham yakson qiladi. Bir tomondan, ong ustaxonasida u o'ziga shikast yetkazishi mumkin bo'lgan qurolni yasaydi. Boshqa tomondan esa, u shu ustaxonaning o'zida quvonch va tinchlik qurolini yasashi ham mumkin. Fikrlarni to'g'ri yo'nalishga qaratish orqali inson ilohiy yetuklik cho'qqisiga erishishi mumkin. Noto'g'ri fikrlash esa, insonni hayvondan ham pastroq darajaga tushirib qo'yishi mumkin." [1.136] To'g'ri va noto'g'ri fikrlash orasida inson yaratgan

xarakter xillari yotadi. O‘z fikrlarining hukmdori bo‘lgan inson har bir hayotiy vaziyatning kalitini qo‘lida mahkam tutadi. Fikrlarda, shaxs istagan vaqtida o‘zgarishiga yordam beruvchi o‘zgaruvchan va qayta tug‘iluvchi kuch yashiringan. Inson o‘z fikrlariga har doim, hatto eng zaif va tuban vaziyatlarda ham hukmronligicha qolishi mumkin. Bunday vaziyatlarda inson o‘z “uyini” yomon boshqarayotgan hukmdor sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z holi haqida fikrlab, nima uchun dunyoga kelganini tushunishga intilish davomida inson donolikka erishadi va o‘z ichki quvvatini ijobiy yutuqlarga erishishga qaratadi. “Fikrlarning ongli hukmdoriga aylanish uchun inson o‘z ichida fikrlash qonunini kashf etishi kerak. Bu kashfiyat o‘z-o‘zini anglab yetish va amaliyatda buni tushunishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan. G‘alabaga erishish uchun kerak bo‘lgan fazilat - bu maqsadning aniqligi, nimani istayotganingizni bilish va unga erishish yo‘lida sobitqadamlikdir. Kutmang: “Fursati” degan narsa yo‘q. Qayerda bo‘lsangiz, o‘sha yerdan boshlang. Qo‘lingizda qanday qurol bo‘lsa, shu bilan boshlang. Undan yaxshirog‘i yo‘l-yo‘lakay topiladi.“ [1.107]

O‘zgarish tashqaridan emas, o‘z ichimizdan boshlanadi. Shaxsiy taraqqiyot jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. [2.30-31] Bugungi yoshlar - ertangi kun yetakchilari. Ular har sohada yetuk, mustaqil fikrlaydigan, o‘z so‘ziga ega bo‘lgan shaxs sifatida shakllanishlari kerak. Buning uchun esa quyidagi sohalarda o‘z ustingizda doimiy ishlappingiz zarur: Hissiy: Ichki barqarorlik va ijobiy fikrlash har qanday vaziyatda to‘g‘ri yo‘l tutishda yordam beradi. Jismoniy: Sog‘lik - har qanday muvaffaqiyatning asosi. Sog‘lom tana - sog‘lom aql demakdir. Moliyaviy: Moliyaviy savodxonlik - mustaqil va barqaror hayot kechirish garovidir. Munosabat: Ijobiy munosabatlar hayotga mazmun va iliqlik bag‘ishlaydi. Vaqt: Vaqtinigizni qadrlang, chunki u qaytarilmaydigan bebaho ne’matdir. Bu borada har bir inson o‘zini shakllantirishi, jamiyatda faol va mas’uliyatli shaxs bo‘lishi muhim. [2. 45] Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bu haqda shunday deydi: "Ishonchim komilki, xalqimiz yaqin istiqbolda jahon iqtisodiyoti, madaniyati va siyosatida o‘zining munosib o‘rnini egallaydi. Chunki jahon sivilizatsiyasida bizning qadimiy va mustahkam ildizlarimiz bor. Men ana shu teran ildizlarimizda yurtni, millatni birlashtiradigan buyuk bir g‘oyani ko‘raman. Shunday ekan, hech shubha yo‘qli, mard va bunyodkor xalqimiz bilan birgalikda Yangi O‘zbekistonni - inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlatni albatta barpo etamiz!".[1.128] Shuningdek, Prezidentimiz ta’lim sohasidagi fidoyi ustozlar mehnatini alohida e’tirof etib, quyidagicha fikr bildiradilar: "Zero, ta’lim muassasalarida mehnat qilayotgan jonkuyar muallim va pedagoglarni farzandlarimiz qalbining chinakam me’mori, muhandisi, deyish mumkin. Alisher Navoiy hazratlarining: ‘Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila, Aylamak bo‘lmas ado, uning haqin yuz ganj ila’, - degan hikmatli satrlari ham ustozlarning maqomi qay darajada baland ekanligidan dalolat beradi." [1. 128]

### Asosiy qism

Eng qorong‘i kuningda, eng chorasiz oningda, o‘zingni o‘rtaga o‘tsang, eng umidsiz oningda, o‘zing uchun emas, oilang uchun... O‘zingga chora deb ishonsang agar, oilasiga muhabbatli kishi chorasiz emas! Hamma eshiklar yuzingga yopilgan bo‘lsa ham, oilasining qalbidan joy olgan hech kim o‘z qo‘liga zindonband emas! [3. 12-15] Qarz deganda xayolga pul keladi, ammo unday emas. Qarzning bir qancha turlari bor: Rahmat aytish; Vafo qilganga vafo qilish; Duosida ismingni tilga olinganini sen ham duoyingda eslapping; Minnatdor bo‘lgandan minnatdor bo‘lish; Yordam berganga yordam berish, yaxshi ko‘rganni yaxshi ko‘rish... Yaxshilikka aloqador nima bo‘lsa, hammasi qarz, uni qaytarish kerak. Shunday qilib, qarzlarni to‘lab-to‘lab qutulish mumkin. Odamlar shuni xato tushunadi, menimcha: Qarzni to‘lash - lutf ko‘rsatish emas, balki majburiyatdir. Qarzni to‘lash - yaxshilik qilish emas, balki yaxshilikni unutmaslikdir. Biz tadqiqotimizni qora qutiga qarashga qiyosladi. Loyihadagi har bir yangi qadam, kompaniyalarga ajoyib natijalarga erishish imkonini beradigan ichki jarayonlarni yoritishni boshlagan yangi lampochkaga o‘xshaydi. [4.4] Ajoyib natijalar, yaxshi natijalar. Qora cuti ichida nima bor? Ha, dunyo o‘zgarmoqda va o‘zgaradi. Ammo bu biz abadiy tamoyillarni izlashni to‘xtatishimiz kerak degani emas. Muhandislik doimo rivojlanib, o‘zgarib turadi, lekin fizikaning asosiy qonunlari nisbatan o‘zgarmas qolmoqda. Bizning ishimiz buyuk tashkilotlarning "fizikasini" belgilaydigan abadiy tamoyillarni izlash ekanligiga ishonishni istardim. Ular atrofdagi dunyo o‘zgarishlaridan qat‘i nazar, adolatli bo‘lib qoladilar. Ha, ularning qo‘llanilishi o‘zgaradi (muhandislar ishida bo‘lgani kabi), lekin uyushgan inson faoliyati qonunlari o‘zgarmas qoladi (fizika qonunlari kabi). Ha, biz Yangi Iqtisodiyotda yashayapmiz va bu hech kimga sir emas. Ammo elektr energiyasining kashfiyoti yoki telefon, avtomobil, radio yoki tranzistor ixtiroasi bilan yashab o‘tganlar o‘zlarini bugungi kundagidan ko‘ra yangi iqtisodiy jarayon ishtirokchilari sifatida his qilishdimi? [5.5-6] Yangi iqtisodiyot rivojlanishining har bir yangi bosqichida eng yaxshi rahbarlar asosiy, asosiy tamoyillarga muvofiq izchil harakat qildilar. Ayrimlarning fikricha, bugungi o‘zgarish sur’ati o‘tmishdagidan ancha tez. Balki. Ammo shunday bo‘lsa ham, ba’zi kompaniyalar bugungi kunga qaraganda tezroq o‘zgarishlarni boshdan kechirdilar. Hamma narsa rahbarlardan, degan e’tiqod hamma narsa Xudodan, degan e’tiqodga o‘xshaydi va bu o‘rta asrlarda dunyoni ilmiy tushunishning rivojlanishiga to‘sinqlik qilgan.[8]

### Xulosa

Kamolotga intiling! Kamolot deganda yoshlar harakatini emas, komillikka intilish, o‘z ustida tinimsiz ishlashni nazarda tutyapmiz. Ko‘plar o‘qib-o‘rganishni afzal ko‘rishadi, bu ham maqsadga eltuvchi yo‘llarning biridir. Ko‘rpaga qarab oyoq uzating Ko‘p pul topgan emas, aql bilan sarflagan boy bo‘ladi. Cho‘ntak bilan hisoblashmasdan yashayotganlar taqchillikka uchrab qolishlariga o‘zları sababchidirlar. Oylikni oylikka taqab yashaydiganlarga qimmatbaho mashina xarid